

## VII. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ro'yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 8163 tani tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabrda yalpi hududiy mahsulotning 68,6 foizi (2020- yil yanvar-sentabrda 71,2 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2021- yil yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari tomonidan:

-sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 3253,3 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 24,7 foizi) yoki 2020- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 107,7 foizni tashkil qildi;

-20550,5 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) tashkil qilib, o'sish sur'ati 102,7 foizni (qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari yalpi mahsulotining 99,0 foizi) tashkil qildi.

-3453,9 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 31,9 foizi) o'zlashtirildi va 2020- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 122,6 martani tashkil qildi;

-3494,1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 74,2 foizi) bajarildi va 2020- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 103,3 foizni tashkil qildi;


-avtomobil transporti yuk aylanmasining 102,9 foizga (umumiy yuk aylanmasiga nisbatan 86,4 ulushi), yo'lovchi aylanmasining esa 103,1 foizga (umumiy yo'lovchi aylanmasiga nisbatan 96,9 ulushi) teng bo'ldi;

-chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 91,1 foizi yoki 9 691,8 mlrd. so'm (8,2 foizga o'sish kuzatildi) va xizmatlar umumiy hajmining, mos ravishda 70,0 foiz ulushi yoki 6 606,0 mlrd. so'mni tashkil qildi;

-70,9 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 39,1 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi.

### Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi


2021- yil yanvar-sentabr oylarida (jamiga nisbatan foizda)




**2021- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi xususiy tadbirkorlikning (fuqarolar mulki) ulushi quyidagicha**

	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd. so‘m</i>	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmida xususiy sektor ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	20550,5	72,5
Sanoat	3253,3	24,7
Qurilish	3494,1	70,7
Chakana savdo	9 691,8	91,1
Xizmatlar	6 606,0	54,6
Ekspart, mln. AQSh doll.	70,9	39,1
Import, mln. AQSh doll.	134,3	56,8

**Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o‘zgarishi quyidagicha ifodalanadi:**




*(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)*



**Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning  
asosiy ko'rsatkichlari**

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	<i>(+-)</i>
<b>Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni</b>	<i>birlik</i>	<b>23362</b>	<b>31903</b>	<b>8541</b>
<b>Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar</b>	<i>birlik</i>	<b>3710</b>	<b>8163</b>	<b>4453</b>
YAHM	%	71,2	68,6	-3,2
Sanoat	%	30,7	24,7	-6,0
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	99,4	99,0	-0,4
Investitsiya	%	17,8	31,9	14,1
Qurilish	%	86,9	74,2	-12,7
Savdo	%	93,0	91,1	-1,9
Xizmatlar	%	71,0	70,0	-1,0
Yuk tashish	%	88,0	86,7	-1,3
Yuk aylanmasi	%	90,5	86,4	-4,1
Yo'lovchi tashish	%	97,0	95,1	-1,9
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,7	96,9	-0,8
Eksport	%	57,0	39,1	-17,9
Import	%	37,2	56,8	19,6


**2021- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida  
kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi**



**Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi, foizda**

**2021- yil yanvar-sentabr**


2021- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 68,6 foizni tashkil qildi (2020 yilning yanvar-sentabrida 71,2 foiz). YAHM tarkibida ko'payishi yirik korxonalar ulushi tushishi bilan tushuntiriladi.



**Kichik tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi  
(umumiy hajmiga nisbatan mlrd. so'mda)**


Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri (669, mlrd. so'm), Chiroqchi tumani (410,8 mlrd. so'm), Yakkabog' tumani (340,3 mlrd. so'm), Koson tumani (269,7 mlrd. so'm), Shahrisabz tumani (246,5 mlrd. so'm) va Kitob tumani (218,0 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Dehqonobod tumani (68,1 mlrd. so'm), Kasbi tumani (57,7 mlrd. so'm) va Muborak tumani (71,4 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.

**2021- yil yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Kitob (98,2 foiz), Chiroqchi (86,7 foiz), Yakkabog' (81,0 foiz), Shahrisabz (80,0 foiz) tumanlari va Shahrisabz shahri (79,0 foiz) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga Nishon (4,1 foiz), G'uzor (5,0 foiz), Kasbi (7,1 foiz), Dehqonobod (15,6 foiz) va Qarshi (21,5 foiz) tumanlarida kichik tadbirkorlikning ulushi pastligi kuzatildi.

**2021- yil yanvar-sentabr holatiga jami sanoat mahsulotidagi  
kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, foiz**




Hududlar bo'yicha ko'proq qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hajmi Chiroqchi (2389,2 mlrd. so'm), Kitob (1921,1 mlrd. so'm), Koson (1900,7 mlrd. so'm), Yakkabog' (1883,6 mlrd. so'm), Qamashi (1822,6 mlrd. so'm) va Kasbi (1510,2 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Qarshi (176,8 mlrd. so'm) va Shahrisabz (108,3 mlrd. so'm) shaharlarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hajmi past bo'lib qolmoqda.

**2021- yil yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da qishloq,  
o'rmon va baliq xo'jaligi hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Qarshi shahri (2 435,9 mlrd. so'm), Koson (1 026,9 mlrd. so'm), Chiroqchi (999,4 mlrd. so'm) va Shahrisabz shaxri (844,9 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Shahrisabz (310,2 mlrd. so'm), Muborak (273,4 mlrd. so'm), Dehqonobod (258,6 mlrd. so'm) va Mirishkor (239,6 mlrd. so'm) tumanlarida chakana tovar aylanmasi hajmi past bo'lib qolmoqda.

### 2021- yil yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



### 2021- yil yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati



**2021- yil yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlardagi hududlar bo'yicha ulushi, foizda**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi</i>	<i>Investitsiya</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Chakana savdo</i>	<i>Xizmatlar</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>24,7</b>	<b>99,0</b>	<b>31,9</b>	<b>74,2</b>	<b>91,1</b>	<b>70,0</b>
Qarshi sh.	33,3	33,3	23,7	67,7	77,0	50,3
Shahrisabz sh.	79,0	99,4	63,2	61,6	99,1	75,8
<i>tumanlar:</i>						
G'uzor	5,0	99,1	15,6	46,9	97,9	73,7
Dehqonobod	15,6	98,7	74,8	100,0	98,3	82,2
Qamashi	55,8	99,5	99,9	100,0	98,6	80,5
Qarshi	21,5	99,2	47,8	100,0	96,4	77,4
Koson	47,1	99,6	98,8	90,8	98,9	84,8
Kitob	98,2	99,2	42,7	100,0	95,8	86,1
Mirishkor	32,0	99,0	89,4	100,0	98,4	90,8
Muborak	21,6	98,5	11,6	34,8	97,4	61,6
Nishon	4,1	96,2	55,6	100,0	98,7	81,6
Kasbi	7,1	98,3	94,2	99,9	98,5	86,4
Chiroqchi	86,7	99,6	89,1	70,2	94,6	74,7
Shahrisabz	80,0	99,5	21,2	100,0	92,2	56,3
Yakkabog'	81,0	99,3	78,5	80,0	97,8	79,1

Hududlar bo'yicha sanoat sohasining kichik biznesdagi eng yuqori ulushi Kitob (98,2 foiz), Yakkabog' (81,0 foiz), Chiroqchi (86,7 foiz) va Shahrisabz (80,0 foiz) tumanlarida kuzatildi.

Investitsiyada eng yuqori ulushlarni Qamashi (99,9 foiz), Koson (98,8 foiz), Kasbi (94,2 foiz), Mirishkor (89,4 foiz), Chiroqchi (89,1 foiz) va Yakkabog' (78,5 foiz) tumanlarida kuzatildi.

Qurilish sohasida Dehqonobod, Qamashi, Qarshi, Kitob, Mirishkor, Nishon va Shahrisabz tumanlarida mos ravishda (100,0 foiz), Koson (90,8 foiz) va Kasbi (99,9 foiz) tumanlarida kuzatildi.


Chakana savdoda Shahrisabz shahri (99,1 foiz), Koson (98,9 foiz) va Nishon mos ravishda (98,7 foiz) tumanlarida kuzatildi.

Xizmatlar sohasida Mirishkor (90,8 foiz), Kasbi (86,4 foiz), Koson (84,8 foiz) va Dehqonobod (82,2 foiz) tumanlarini tashkil etadi.

Joriy davrda mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi. Qurilish sohasida respondentlarning 53,0 foiz qulay, 38,8 foiz qoniqarli deb hisoblashini, savdo sohasida – 52,8 foiz qulay va 38 foiz qoniqarli, mos ravishda xizmatlar sohasida – 50,0 foiz va 39,6 foiz, sanoatda – 54,9 foiz va 37,3 foiz, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida 31,7 foiz va 56,7 foiz qoniqarli tashkil qilganini ko‘rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar qurilishda – 8,2 foiz, sanoatda – 7,8 foiz, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida – 11,6 foiz, xizmatlarda – 10,4 foiz va savdoda – 9,2 foizni tashkil qildi.

### Kichik tadbirkorlikda iqtisodiy vaziyatni baholash 2021- yil III -chorak uchun, foizda



**Iqtisodiy vaziyat yaqin uch oyda** qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida qulay 64,4 foiz, qoniqarli 30,0 foiz, sanoat korxonalarida qulay 68,6 foiz, qoniqarli 28,4 foiz, savdo – qulay 64,4 foiz, qoniqarli 31,9 foiz, xizmatlarda qulay 68,5 foiz, qoniqarli 30,0 foiz va qurilish tarmog‘ida qulay 71,4 foiz, 24,5 foiz qoniqarli bo‘lishi kutilmoqda.

**Kichik tadbirkorlik (biznes)da iqtisodiy vaziyatning o‘zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, foizda**



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko‘rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.